



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 6-sentabr

445-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 4-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kreativ iqtisodiyot bo‘yicha IV Butunjahon anjumanining Toshkent shahrida o‘tkazilishiga tayyorgarlik ko‘rishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 23-avgustdagi PQ-301-son qarori ijrosi haqida”gi 412-6-0-Q/24-son qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kreativ iqtisodiyot bo‘yicha IV Butunjahon anjumanining Toshkent shahrida o‘tkazilishiga tayyorgarlik ko‘rishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 23-avgustdagi PQ-301-son qarori hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 4-sentabrdagi 412-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga muvofiq,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kreativ iqtisodiyot bo‘yicha IV Butunjahon anjumanining Toshkent shahrida o‘tkazilishiga tayyorgarlik ko‘rishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 23-avgustdagi PQ-301-son qarori hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 4-sentabrdagi 412-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-avgustdagi PQ-301-son qarori bilan:

2024-yil 2-4-oktabr kunlari Toshkent shahrida Kreativ iqtisodiyot bo‘yicha IV Butunjahon anjumani (keyingi o‘rinlarda – Butunjahon anjumani) yuqori saviyada o‘tkazilishi belgilanganligi;

Toshkent shahrida Kreativ iqtisodiyot bo‘yicha IV Butunjahon anjumaniga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bo‘yicha tashkiliy qo‘mita (keyingi o‘rinlarda – Tashkiliy qo‘mita) 1-ilovaga muvofiq tarkibda tuzilganligi;

Butunjahon anjumani doirasida Madaniyat va san‘atni rivojlantirish jamg‘armasi (keyingi o‘rinlarda - Jamg‘arma)ga:

a) Toshkent shahrida:

Fransuz madaniyat markazi, Milliy restavratsiya markazi loyihalari, shuningdek, Abulqosim madrasasi va “Ohunguzar” madaniy meros ob‘ektida kreativ iqtisodiyot klasterlarini yaratish loyihalari taqdimotlarini o‘tkazish;

b) Butunjahon anjumaniga taklif etilgan ishtirokchilar, xalqaro ekspertlar, soha vakillari va keng jamoatchilikni jalb etgan holda:

Strategik islohotlar agentligi bilan birgalikda “Kreativ iqtisodiyot to‘g‘risida”gi qonun loyihasini takomillashtirishni tashkil etish;

O‘zbekiston Respublikasida 2030-yilgacha kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish konsepsiyasi hamda uni 2025-2026-yillarda amalga oshirish bo‘yicha davlat dasturi loyihasi Butunjahon anjumani yakuni bo‘yicha ishlab chiqilishini ta‘minlash vazifalari yuklatilganligi;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, Toshkent shahar, Buxoro va Samarqand viloyatlari hokimliklariga:

Butunjahon anjumani va uning doirasidagi tadbirlar o‘tkaziladigan joylarda obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish ishlarini amalga oshirish, sahna maydonlari va joylarni yuqori darajada tayyorlash;

reklama bilbordlari va ekranlarida Butunjahon anjumani to‘g‘risidagi ma‘lumotlarning ijtimoiy axborot sifatida bepul joylashtirilishini tashkil etish vazifalari yuklatilganligi;

Kreativ iqtisodiyot bo‘yicha IV Butunjahon anjumanining Toshkent shahrida o‘tkazilishiga tayyorgarlik ko‘rish yuzasidan chora-tadbirlar rejasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

belgilanishicha,

Madaniyat va san‘atni rivojlantirish jamg‘armasi Tashkiliy qo‘mitaning Ishchi organi hisoblanishi;

“InterForum” davlat unitar korxonasi Butunjahon anjumanini tashkil etishga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bo‘yicha Bosh operator hisoblanishi;

vazirlik va idoralarning birinchi rahbarlari ushbu qarorda nazarda tutilgan topshiriqlar, shuningdek, Tashkiliy qo‘mita hamda Ishchi organning boshqa tezkor ko‘rsatmalari o‘z vaqtida va sifatli bajarilishi uchun shaxsan javobgar hisoblanishi e‘tiborga olinsin.

3. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 4-sentabrdagi 412-6-0-Q/24-sonli qarori bilan:

Viloyat madaniy meros boshqarmasi (M.Kadirov) manfaatdor boshqarma va tashkilotlar, Namangan shahar va tumanlar hokimliklari bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-avgustdagi PQ-301-son qarori talablaridan kelib chiqib, ish tashkil qilishi belgilanganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosarlari J.Raximov hamda Sh.Umaraliyev zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov